

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (17)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Sirojov Bahodir Nishon o'g'li THE SPECIFIC FEATURES OF THE MONETARY REFORM IMPLEMENTED BY ABDULLAH KHAN II	4
2	Суярова Феруза Собир кизи ЎЗБЕКИСТОНДА АМАЛИЙ САНЪАТ ВА ХУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ ТИКЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ХУҚУҚИЙ-МЕЪЁРИЙ АСОСЛАРИ	9
3	Тухтабеков Козимбек Азимбекович ШАЙБОНИЙХОН ДАВРИ МЕЪМОРЧИЛИГИ: САМАРҚАНДДАГИ МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОН МАДРАСАСИ (МАДРАСА-ЙИ ОЛИЯ) ТАРИХИ	17
4	Тухтабеков Козимбек Азимбекович ШАЙБОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ НАЗАРИЙ- МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	27
5	Узаков Бахром Нигматович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВРИДА ҚАШҚАДАРЁДА КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	36
6	Xayitov Zafar Uzakovich MENANDRNING “TARIX” ASARI ILK VIZANTIYA DIPLOMATIYASI BO‘YICHA MANBA SIFATIDA	45
7	Shaydullayeva Guljahon Shapulatovna., Rahmonqulova Zumrad Boyxurazovna OKSNING ENEOLIT VA BRONZA DAVRI TABIIY SHAROITI VA IQLIM O‘ZGARISHLARI	53
8	Шакиров Ильяс Рахимзянович ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВЬЕТНАМСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ: ОТ КИТАЙСКОГО ВЛИЯНИЯ ДО НЕЗАВИСИМОСТИ	61
9	Eralov Azamat Jomurodovich O‘ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANISHIDA BUXORO ETNOTURIZMINING AHAMIYATI	68
10	Эргашева Юлдуз Алимовна ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	74
11	Eshtemirov Jasurbek Suyunkulovich INTRODUCTION OF NEW RULES AND CHANGES IN THE ADMINISTRATIVE AND POLITICAL MANAGEMENT OF THE CITY OF KARSHI UNDER THE SUBORDINATION OF THE BUKHARA EMIRATE TO THE RUSSIAN EMPIRE	81
12	Эштемиров Жасурбек Суюнкулович ПОРЯДОК СБОРА НАЛОГОВ И ПОДАТЕЙ В ГОРОДЕ КАРШИ В ПОСЛЕДНИЙ ПЕРИОД СУЩЕСТВОВАНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (1900–1920 ГГ.)	88
13	Эшқувватов Бобир Валикул ўғли МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХРИСТИАН КОНФЕССИЯЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УЛАРНИНГ ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ	97

Xayitov Z. U.

«Tarix» kafedrası dotsenti, f.f.n.

Navoiy davlat universiteti

Zafarkhayitov90@mail.com**MENANDRNING «TARIX» ASARI ILK VIZANTIYA DIPLOMATIYASI
BO‘YICHA MANBA SIFATIDA*****ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada vizantiyalik diplomat va tarixchi Menandr Protiktor asarlarining Vizantiya tashqi siyosati va diplomatiyasi tarixini o‘rganishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallifning Vizantiya elchilarining turk hoqonligiga safari haqidagi ma’lumotlari asosida Vizantiya diplomatiyasining usullari va elchilik marosimlari tartibi yoritilgan. Shuningdek, Menandr ma’lumotlarining manbashunoslik xususiyatlari va zamonaviy tarixshunoslikdagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: varvarlar, Turk hoqonligi, Romey elchilari, avarlar, Vizantiya diplomatiyasi, sosoniylar davlati, G‘arbiy Turk hoqonligi, Dizabul.

KIRISH

Vizantiya imperiyasi uzoq vaqt davomida murakkab xalqaro qarama-qarshiliklar markazida bo‘lib kelganligi bois, Yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan ancha oldin murakkab hamda rivojlangan diplomatik tizimni shakllantirgan. IV asr oxirlaridan boshlab varvar qabilalarining Rim imperiyasi hududlariga hujumlari kuchaya boshlagan edi. Vizantiya esa turli varvar qabilalari bilan o‘ralib olingan murakkab geosiyosiy muhitda mavjud bo‘lib, ularning ichki tuzilishi va tashqi aloqalari haqida keng qamrovli ma’lumotlarga ega bo‘lishga intildi. Ya’ni, Vizantiyaliklar nafaqat o‘zlarini varvarlardan himoya qilishga, balki ular bilan siyosiy va diplomatik munosabatlarga kirishishga ham majbur edilar. Shu bois, vizantiyaliklar varvarlarning urf-odatlarini, harbiy salohiyati, savdo aloqalari, o‘zaro munosabatlari va nizolari, shuningdek, ular orasidagi nufuzli shaxslar va ularni siyosiy jihatdan o‘z tomoniga og‘dirish usullari haqida tizimli ravishda ma’lumot to‘plaganlar. Ana shu kuzatuv va ma’lumotlar asosida Vizantiya mualliflarida qo‘shni davlatlar, shuningdek uzoq va kam o‘rganilgan hududlar to‘g‘risida ancha batafsil hamda ilmiy qiziqish uyg‘otuvchi tasavvurlar shakllangan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Vizantiya imperiyasi tashqi siyosatining eng yuksalgan davri aynan imperator Yustinian I hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Uning davrida Rim imperiyasini qayta tiklashga qaratilgan keng ko‘lamli siyosiy dastur turli mintaqalarda uzluksiz va murakkab diplomatik faoliyat olib borishni taqozo etgan. Xususan, Yustinian I hukmronligi davrida G‘arbiy hududlarni qayta zabt etish strategiyasi ko‘p yo‘nalishli tashqi siyosatni amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liq edi. Mazkur strategiya doirasida imperiya, avvalo, Sharqiy va Shimoliy chegaralarda

barqarorlikni ta'minlashga intildi. Bu esa Sosoniylar davlati bilan ochiq harbiy to'qnashuvlardan imkon qadar qochish, vaqtinchalik sulhlar tuzish va diplomatik muvozanatni saqlab turishni talab etardi. Shu bilan birga, Dunay daryosi bo'ylarida yashovchi varvar qabilalarini nazorat ostida ushlab turish, ularni zaiflashtirish yoki o'z tomoniga og'dirish muhim vazifa hisoblangan. Bundan tashqari, Vizantiya yangi ittifoqchilar topishga e'tibor qaratdi. Bu ittifoqlar nafaqat harbiy xavfsizlikni mustahkamlash, balki raqib kuchlarni izolyatsiya qilish va ularning o'zaro aloqalarini zaiflashtirishga xizmat qilgan [3].

Vizantiyaliklar o'zlariga kuchli va xavfli bo'lib ko'ringan qo'shnilarga nisbatan makkorona siyosat yuritganlar. Vizantiyalik tarixchi Menandr asarlarida VI asrdagi Vizantiya-turk munosabatlari, xususan, turk hoqoni Dizabul (Istemi shunday nom bilan tilga olinadi) bilan olib borilgan diplomatik aloqalar haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Menandrning yozishicha, Vizantiya imperatori Yustinian II (565-578 yy.) turk hoqoni Dizabul huzuriga o'z elchisini jo'natgan. Elchining asosiy vazifasi turklarni Vizantiyaning asosiy dushmani – Sosoniylar davlati va avarlarga qarshi birgalikda harakat qilishga ko'ndirish edi [14].

Yustinian I o'z hukmronligi davomida imperiyaga raqib sifatida qaralgan Eronga nisbatan deyarli barcha tashqi siyosiy strategiyalarni qo'llab ko'rdi. Dastlab u qisqa muddat ichida hal qiluvchi harbiy g'alabaga erishishni ko'zlagan bo'lsa, keyinchalik mavjud siyosiy vaziyatni saqlab qolish maqsadida Eronning harbiy qudratini cheklash siyosatini olib bordi. Yustin II esa taxtga chiqqanidan ko'p o'tmay Eronni asosan diplomatik vositalar orqali mag'lub etishga intildi [1].

U Eronning siyosiy va harbiy qudratini uchinchi bir kuch yordamida zaiflashtirish yo'llarini izlay boshladi. Uning nazarida bunday kuch Vizantiya tomonidan moliyaviy manfaat evaziga yollanadigan vaqtinchalik ittifoqchi emas, balki umumiy dushmanga qarshi chinakamiga kurashishga tayyor bo'lgan ishonchli va qudratli hamkor bo'lishi kerak edi. Shu sababli imperator Turk hoqonligini o'zining asosiy tashqi siyosiy tayanchlaridan biri sifatida ko'rdi. Tarixchi Menandr asarlarida Vizantiya imperatori va Turk hoqonlari o'rtasidagi elchiliklar tarixi batafsil tasvirlangan. Menandrning yozishicha, Vizantiya bilan ittifoqchilik shartnomasini tuzish tashabbusi aynan turklar tomonidan ilgari surilgan, vaholanki ular Vizantiyaning bevosita qo'shnilari ham hisoblanmagan [2].

Odatda, uzoq hududlardagi xalqlar bilan harbiy ittifoq tuzish tashabbusi Vizantiya elchilari tomonidan ilgari surilar edi. Bu holatda esa shartnoma turklarga ayrim qo'shimcha, biroq og'ir bo'lmagan majburiyatlarni yuklash bilan birga, ularning Vizantiyaga nisbatan talablarini ham ma'lum darajada cheklar edi. Shuning bilan birga, turk hoqoni ham avarlar va forslarga qarshi muayyan rejalariga ega bo'lgan. Bundan tashqari, vizantiyaliklar bilan tuzilgan ittifoq turk hukmdori uchun unchalik katta ahamiyatga ega emas edi, chunki u o'zi dushman deb hisoblagan tomonlardan biriga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni rejalashtirgan edi. Hoqonlikdagi so'g'd savdogari Maniakhning maslahati bilan turk hoqoni Vizantiya imperiyasi bilan aloqa o'rnatishga qaror qildi. Uning maqsadi ipakni vizantiyaliklarga bevosita sotish hamda Sosoniylar Eroniga qarshi siyosiy muvozanatni ta'minlay oladigan hamkor sifatida Vizantiyani qo'lga kiritish edi.

Maniax boshchiligidagi elchilik cho'l hududlari va Kavkaz tog'lari orqali, alanlar yordamida, imperiyaning sharqiy chegarasiga, keyin esa Konstantinopolga yetib bordi [6].

Imperator Yustin II tomonidan javob tariqasidagi, Zemarx boshchilik qilgan Vizantiya elchiligi 569-yil avgust oyida hoqon huzuriga yuborildi. Uning asosiy vazifasi Turk hoqonligi bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatish, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish va Sosoniylar Eroniga qarshi harbiy-siyosiy ittifoqni mustahkamlashdan iborat edi. Vujudga kelayotgan Vizantiya-turk ittifoqidan xavotirga tushgan eronliklar alanlarni pora berish orqali elchilarni yo'q qilishga urinishdi. Biroq elchilik bu xavflarni muvaffaqiyatli yengib o'tib, Ektag tog'ida joylashgan hoqon qarorgohiga yetib borishga muvaffaq bo'ldi [1].

Uzoq yo'lda vizantiyalik elchilar ko'plab turli qabilalar va xalqlarni uchratishdi: so'g'diylar o'z qishloqlarida ularga temir sotib olishni taklif qilishdi va elchilarni o'z yurtlarida temir rudasi borligiga ishontirdilar. O'sha yerda vizantiyaliklar Zemarx va uning atrofidagilar ustidan tozalanish marosimini o'tkazgan mahalliy shamanlar bilan uchrashishdi. Tozalanish marosimidan so'ng Zemarxning elchiligi mahalliy yo'l boshchi hamrohligida Dizabulning qarorgohi joylashgan Ektag tog'iga (yunoncha – "Oltin tog'") boshlab borildi. Dizabul vizantiyalik elchilarga hurmat belgisi sifatida ularni yetib kelishlari bilanoq qabul qildi. Menandr asaridan parchada, turklar yunonlarni uzum vinosi bilan emas, turklar yurtida uzum o'smagani bois boshqa mahalliy shirin ichimlik bilan mehmon qilishgani ham aytib o'tiladi. Ziyofat ertasi kun ham davom etib, u hoqonning yanada ko'rkam va ipak kiyimlar bilan bezatilgan boshqa bir chodirida bo'lib o'tadi [15].

Chodirda har xil g'alati butlar – turk-butparastlarning sanamlari turardi, chodirning o'rtasiga esa sof oltindan yasalgan qimmatbaho idishlar terib qo'yilgan. Hoqonning o'zi oltin krovatda o'tirardi. Chodirda ziyofat yana uzoq davom etadi. Elchilar ishtirokida ziyofat uchinchi kuni ham davom etgan. Romey elchilarining tasavvurini yanada hayratga solish uchun uchinchi kuni ular «oltin bilan qoplangan yog'och ustunlar, shuningdek, oltindan yasalgan, to'rtta tillatovus qush tomonidan osib qo'yilgan to'shak joylashgan xonaga» taklif qilindi. Menandr elchilarning turklar qarorgohiga yetib kelishi va qabul qilinish jarayonini tasvirlar ekan, turklarning mehmondo'stligi va saxiyligi vizantiyaliklarni hayratda qoldirganini alohida ta'kidlaydi.

Menandr Dizabulni tashqi siyosat masalalariga katta e'tibor bergan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Uzoq davom etgan muzokaralar jarayonida Vizantiya imperiyasi bilan ittifoq tuzishning afzalliklari muhokama qilingan. Shu bilan birga, Dizabul Konstantinopol saroyining turklarga yetarlicha pul to'lashini talab qiladi. Natijada kelishuvga ko'ra, vizantiyaliklar turklarga muayyan miqdorda pul to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olganlar. Menandr bu muzokaralarni batafsil yoritib, vizantiyalik elchilarning diplomatik mahorati va o'z maqsadlariga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarini atroflicha tasvirlab beradi. Zemarxning elchiligi Vizantiyaning turklar bilan birinchi rasmiy aloqasi bo'lib, keyingi munosabatlar uchun asos yaratgan. Muzokaralar yakunlangach, Zemarx o'n ikki xizmatchisi bilan birga Dizabul tomonida forslarga qarshi yurishga chiqadi, qolgan romeylar

esa o‘z yurtlariga qaytdilar. 572 yilda turk hukmdori Eronga qarshi urush e‘lon qildi. Shu yilda vizantiyaliklar ham forslarga qarshi urush boshladilar. Bu urush yigirma yil (572–591 yy.) davom etdi [3].

Shu bilan birga, G‘arbiy turklar va Vizantiya o‘rtasida yaqin diplomatik munosabatlar saqlanib qoldi. Zemarx Volganing quyi oqimi, Kavkaz va Lazika orqali Konstantinopolga qaytar ekan, Dizabul undan keyin Anankast ismli ikkinchi elchisini yubordi. Vizantiya esa keyingi yillarda navbatma-navbat Yevtix, Valentin, Xerodian va Kilikiyalik Pavelni elchi sifatida turklar huzuriga yo‘llagan edi. Menandrning yozishicha, 576 yilgacha bo‘lgan vaqtda turklar tomonidan Vizantiyaga yetti marta elchilik jo‘natilgan [2]. Bu elchilar Vizantiyaga turklarning urf-odatlarini va diniy e‘tiqodlari haqida ancha aniq ma‘lumotlar yetkazganlar. Feofilakt Simokattaning yozishicha, turklar olovni nihoyatda muqaddas deb bilganlar. Bu holat ularga eronliklarning mazdaizm ta‘limoti ta‘sir ko‘rsatganini va hatto Ormuzd (Hurmuzd) xudosini ham qabul qilganlarini ko‘rsatadi. Shuningdek, ular havo va suvni ham ulug‘laganlar. Turklar osmon va yerning yagona yaratuvchisini tan olganlar, uni xudo deb atab, unga ot, buqa va qo‘ylarni qurbonlik qilganlar. Bu qadimgi turkiy va mo‘g‘ul xalqlariga xos bo‘lgan Tengri (Ko‘k Tangri) e‘tiqodi edi. Feofilakt yana turklarda kelajakni bashorat qiluvchi ruhoniylar mavjudligini qayd etadi. Bu ma‘lumot turkiy-mo‘g‘ul shamanlariga taalluqli bo‘lib, ular Chingizxonlar davrida ham katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lganlar [4].

Tiberiy hukmronligi (578-582 yy.) davrida Birinchi Turk hoqonligiga Valentin boshchiligida yangi “katta” romei elchiligi yuborilgan. Elchilarni Turksanf (575-603 yy.) qabul qildi. U buyuk hoqonga bo‘ysunuvchi sakkiz eldan iborat Turk hoqonligidagi sakkiz nufuzli shahzodadan biri hisoblangan. Menandr ma‘lumotlariga ko‘ra, Dizabulning o‘g‘li Turksanf (xitoy manbalarida Ta-Tou nomi bilan tilga olinadi) romeylarni aldamchilik va xiyonatda ayblab, keskin ohangda murojaat qiladi: “Sizlar, elchilar ham, menga yolg‘on bilan kelyapsizlar, sizni yuborgan odam ham tabiatan aldamchi”, – deya so‘z boshlaydi. Turk hukmdorining noroziligiga Vizantiyaliklarning avarlar bilan ittifoq tuzganligi sabab bo‘lgan edi. Chunki 569 yilgi kelishuvga ko‘ra, Vizantiya avarlar bilan ittifoq tuzmaslik majburiyatini olgan edi. Avarlar aslida turklarga qaram bo‘lib, ularning hukmronligidan qochib, G‘arbga qochib ketishgan edi. Valentin Xusrav I Anushirvon vafotidan keyin avarlar elchilari imperator Yustin huzuriga kelib, tinchlik o‘rnatish hamda Pannoniya hududini egallashga ruxsat berishni so‘raganliklarini, ammo bu iltimos rad etilganini xabar beradi. Shunga qaramay, avarlar Pannoniyada mustahkam o‘rnashib oldilar va vizantiyaliklar ustidan qator muvaffaqiyatlarga erishdilar. Natijada Vizantiya 570 yilda ular bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi [9].

Mazkur voqealar mintaqadagi siyosiy kuchlar nisbatida jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Volga bo‘ylaridagi turklar hali yaqindagina bo‘ysundirilgan qabilalar qurshovida yashar edilar. Bu qabilalarning itoatkorligi, avvalo, turklarning og‘ir qurollangan otliq qo‘shinlariga munosib raqibning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Avarlar qudratining kutilmagan darajada ortishi esa Turk hoqonligining barcha raqiblari, ayniqsa kuturgurlar uchun yangi siyosiy markazning

shakllanishiga zamin yaratdi. Avarlar Vizantiya bilan sulh tuzib, o'z xavfsizligini ta'minlagan va qudratli davlatga aylanganidan so'ng vaziyat tubdan o'zgardi. Endi turklar ularning kuchayishidan xavotirlanmasliklari mumkin emas edi. Agar avvalgi elchilik nisbatan iliq qarshi olingan bo'lsa, bu safar munosabat mutlaqo boshqacha bo'ldi [7].

Vizantiyaliklar elchilik safarlari davomida ba'zan xufiyona faoliyat ham olib borganlar. Ya'ni, elchilar tarkibiga kiritilgan josuslar orqali Turk hoqonligi to'g'risida maxfiy ma'lumotlarni to'plashga uringanlar. Bunday harakatlar, tabiiyki, ikki tomonlama munosabatlardagi ishonchni yo'qqa chiqargan. Bundan tashqari, vizantiyaliklarning turk elchilarini chalg'itib, ularni boshqa yo'llar orqali kuzatib qo'yganliklari haqidagi gap-so'zlar ham hoqonning g'azabini kuchaytirgan. Turkasanf romeylarni turklar yurtidan imperiyaga olib boruvchi eng qisqa va qulay yo'lni yashirganlikda ham ayblaydi. Bu yo'l orqali avarlar Danapr (Dnepr), Istr (Dunay) va Yevr (Evros) daryolari orqali o'tgan edilar. Valentinning salomlariga u shunday javob berdi: "Sizlar o'nta tilda gapirib, bitta aldovni ishlatadigan o'sha rimliklar emasmisiz?". Bu so'zlarni aytgach, u og'zini o'nta barmog'i bilan to'sib, so'ng davom etdi: "Endi og'zimda o'nta barmog'im bo'lgani kabi, siz rimliklarda ham ko'p tillar bor. Biri bilan meni aldaysiz, boshqasi bilan mening qullarim varxonitlarni... Podshohingiz men bilan do'stona gaplarni gaplashayotgani, varxonitlar (avarlar) esa o'z xo'jayinlaridan qochib, shartnoma tuzgani uchun o'z vaqtida jazosini oladi. Ammo varxonitlar turklarning tobelari sifatida men xohlaganimda yonimga keladilar... Nega sizlar Vizantiyaga ketayotgan elchilarimni Kavkaz orqali olib o'tasizlar va ularga boshqa yo'l yo'qligiga ishontirasizlar? Sizlar buni shuning uchun qilyapsizlarki, men bu yo'lning qiyinligi tufayli Rim viloyatlariga hujum qilishdan voz kechay. Biroq, menga Danapr daryosi qayerda ekanligi, Istr uning qayerga quyilishi, Evr qayerda oqishi va mening qullarim varxonitlar Rim imperiyasiga qanday yo'llar bilan o'tishgani aniq ma'lum. Sizning kuchingiz ham menga begona emas. Menga esa butun yer yuzi, quyosh nurlaridan boshlab, g'arb chegaralarigacha bo'ysunadi. Achinarli ahvoldagi alan xalqlariga qarang va o'z kuchlariga tayanib, yengilmas turk xalqiga qarshi chiqishga jur'at etgan utigur qabilalariga ham qarang, lekin ular o'z umidlarida aldandilar. Endi ular bizning tobeligimizda, bizning qulimizga aylandilar" [2].

G'azablangan hoqon hatto romei elchilarini o'ldirish bilan tahdid qiladi. Shunga qaramay, Valentin mohir diplomatiya yuritib, sulh va'dalari orqali Turkasanfni yumshatishga erishadi. va motam belgisi sifatida turk odatlariga muvofiq qilich bilan yonoqlarini tilishni talab qiladi. Romei elchilari bu talabni bajarib, yonoqlarini kichik qilichlar bilan kesadilar. Dafn marosimi chog'ida romeylar turklarning marosim odatlarini kuzatib, marhum hoqon sharafiga to'rtta asir xunning uning otlari bilan birga qurbonlik qilinganiga guvoh bo'ladilar. Frantsuz tarixchisi Rene Grusse turklar bilan vizantiyaliklar o'rtasidagi ushbu kelishmovchilik ularning Sosoniylar davlatiga qarshi olib borgan harbiy harakatlarini to'xtatmaganligi, turklarning 588–589 yillarda Baqtriya (Tohariston)ni egallab, Hirotgacha yetib borganliklarini ta'kidlaydi [3].

Vizantiyaliklar turklar bilan munosabatlarda ko'pincha ikkiyuzlama siyosat yuritganliklari kuzatiladi. Ular tashqi tomondan do'stona munosabat va harbiy yordam va'dalarini ilgari surgan bo'lsalar-da, amalda o'z manfaatlarini ustuvor qo'yib, turklarni chalg'itishga intilganlar. Bunday siyosat natijasida o'zaro ishonch izdan chiqqan va turklar Vizantiyaning va'dalariga shubha bilan qaray boshlaganlar. Natijada ikki davlat o'rtasidagi ittifoqchilik aloqalari zaiflashib, oxir-oqibat deyarli barham topgan. Shu asosda, Vizantiya diplomatiyasi o'z manfaatlarini ta'minlash yo'lida turli vositalardan, jumladan, siyosiy hiyla va nayranglardan keng foydalangan, degan xulosaga kelish mumkin. Menandr Protiktorning turk hoqonligi bilan birinchi tanishuvi haqidagi hikoyasi tasvirning jonliligi, tafsilotlarning ishonchliligi va guvohlar ko'rgan voqealarni aniq va to'g'ri yetkazishi bilan ilk Vizantiya tarixshunosligida alohida o'rin tutadi. Shu sababli u hozirgacha qadimgi turk xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba sifatida foydalaniladi. Uning ma'lumotlarining ko'pi keyingi arxeologik tadqiqotlar va sharq, xususan xitoy yilnomalari bilan tasdiqlangan [8].

Turklar tomonidan Konstantinopolga yuborilgan so'nggi elchilik 598 yilda, imperator Mavrikiy hukmronligi davrida, G'arbiy Turk hoqoni nomidan amalga oshirildi. Chunki bu davrga kelib Turk hoqonligi ikki mustaqil siyosiy tuzilma – Sharqiy Turk xoqonligi va G'arbiy Turk hoqonligiga bo'linib ketgan edi. Ushbu diplomatik missiya G'arbiy Turk hoqonligining Vizantiya imperiyasi bilan ittifoqchilik munosabatlarini saqlab qolish va mustahkamlashga xizmat qilishi kerak edi. Turklar bilan shakllangan mazkur siyosiy-diplomatik hamkorlik keyinchalik imperator Irakliy davrida Sosoniylar Eroniga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarda Vizantiya uchun muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Xususan, bu ittifoq Vizantiyaning tashqi siyosiy manfaatlarini ta'minlash va forslarga qarshi kurashda qo'shimcha harbiy-siyosiy tayanch sifatida xizmat qildi [13].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Menandr Protiktorning «Tarix» asari Vizantiya diplomatiyasi tarixini o'rganishda eng muhim birlamchi yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarda VI asrda Vizantiya imperiyasining Turk hoqonligi, Sosoniylar Eroni va boshqa qo'shni davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari, elchilik faoliyati, muzokaralar jarayoni hamda xalqaro munosabatlardagi strategik yondashuvlari batafsil yoritilgan. Muallif voqealarning bevosita ishtirokchisi bo'lmagan bo'lsa-da, uning ma'lumotlari elchilar hisobotlari, saroy hujjatlari va diplomatik axborotlarga tayanganligi sababli yuqori tarixiy qiymatga ega.

Menandrning asari Vizantiya diplomatiyasining nafaqat siyosiy maqsadlari, balki uning amaliy mexanizmlari – elchilik marosimlari, diplomatik protokol, ittifoq tuzish usullari, muzokara olib borish tamoyillari va josuslik faoliyatini ham yoritib beradi. Ayniqsa, Vizantiya-turk munosabatlariga oid ma'lumotlar ikki davlat o'rtasidagi harbiy-siyosiy hamkorlik, savdo manfaatlari va geosiyosiy raqobatning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, asarda turklarning siyosiy tuzumi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar va diplomatik an'analari haqidagi etnografik ma'lumotlar ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Menandrning «Tarix» asari Vizantiya diplomatiyasini o'rganishda nafaqat tarixiy voqealarni yorituvchi manba, balki VI asr xalqaro munosabatlari, diplomatik amaliyoti va davlatlararo aloqalar tizimini tiklash imkonini beruvchi noyob manbashunoslik yodgorligi sifatida alohida ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlarini boshqa Vizantiya, Sharq va G'arb manbalari bilan qiyosiy tahlil qilish Vizantiya tashqi siyosati evolyutsiyasi hamda ilk o'rta asrlar diplomatiyasi tarixini yanada chuqurroq va xolis yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ru.wikipedia.org/wiki/Византийская_дипломатия
2. Олеся Жданович. Менандр Протектор. История: о посольствах тюрков к персам и византийцам в 568 году//Золотоордынское обозрение. №1. 2014.
3. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и торговля щёлком в V-VII вв. // 1947. Т. 1. С. 189.
4. Менандр Протектор // Византийские историки. Перевод и вступительная статья и комментарии С.П. Кондратьева. СПб.: «Алетейя», 1996.
5. <https://qalam.global/ru/articles/vizantiia-i-tiurki-gibel-i-rozdenie-civilizacii-ru-2>
6. <https://qalam.global/ru/articles/vizantiia-i-tiurki-gibel-i-rozdenie-civilizacii-ru-2>
7. Кулаковский Ю.А. История Византии. Т.2. М., «Алетейя», 1996.
8. Рене Груссе. Империя степей. Атилла, Чингиз-хан, Тамерлан. - Алматы, 2006.
9. Успенский Ф.И. История Византийской империи. Т.1. -М., «Астрель», 2001
10. Рене Груссе. Империя степей. Атилла, Чингиз-хан, Тамерлан. - Алматы, 2006.
11. Гумилёв Л.Н. Қадимги турклар. Т., «Фан», 2007.
12. Успенский Ф.И. История Византийской империи. Т.1. -М., «Астрель», 2001.
13. <https://pomnirod.ru/files/gumilev.pdf>
14. Гумилёв Л.Н. Қадимги турклар. Т., «Фан», 2007.
15. Острогорский Г.А. История византийского государства. // Перевод с немецкого М.В. Грацианского. М., «Сибирская благовонница», 2011.

Хайитов З. У.

к.ф.н., доцент кафедры «История»
Навоийский государственный университет
Zafarkhayitov90@mail.com

«ИСТОРИЯ» МЕНАНДРА КАК ИСТОЧНИК ПО РАННЕЙ ВИЗАНТИЙСКОЙ ДИПЛОМАТИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение трудов византийского дипломата и историка Менандра Протектора как источника для изучения истории внешней политики и дипломатии Византийской империи. На основе сведений автора о посольстве византийских послов в Тюркский каганат раскрываются методы византийской дипломатии и особенности дипломатического протокола и посольского церемониала. Кроме того, рассматриваются источниковедческие особенности сочинений Менандра и их значение в современной историографии.

Ключевые слова: варвары, Тюркский каганат, ромейские послы, авары, византийская дипломатия, Сасанидское государство, Западно-тюркский каганат, Дизабул.

Khayitov Z. U.

Associate professor, PhD in philosophical sciences at the
department of «History»
Navoi State University
Zafarkhayitov90@mail.com

MENANDER PROTECTOR'S HISTORY AS A SOURCE FOR EARLY BYZANTINE DIPLOMACY

ABSTRACT

This article examines the significance of the works of the Byzantine diplomat and historian Menander Protector as a source for the study of the history of Byzantine foreign policy and diplomacy. Based on the author's accounts of the journey of Byzantine envoys to the Turkic Khaganate, the study analyzes the methods of Byzantine diplomacy and the procedures of diplomatic protocol and embassy ceremonies. It also evaluates the source-critical characteristics of Menander's writings and their importance in modern historiography.

Keywords: Barbarians; Turkic Khaganate; Byzantine Envoys; Avars; Byzantine Diplomacy; Sasanian Empire; Western Turkic Khaganate; Dizabul.